

O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATIDA PORTRET JANRI

*Meliqo'ziyeva Sarvinoz Odiljon qizi**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti**Rangtasvir (dastgohli) ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston tasviriy san'atida portret janrining ahamiyati haqida, portret qonun-qoidalari, ijodkor oldida turgan vazifa va uni qay tarzda bajarishni yo'l yo'riqlarini ko'rsatib berishga harakat qildindi. O'zbekistonda ijod qilayotgan portretchi rassomlar ijodi va ularning uslublari o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, portret janri, realistik maktab, portretnavis-rassomlar.

ЖАНР ПОРТРЕТА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ
УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье была сделана попытка рассказать о значении портретного жанра в изобразительном искусстве Узбекистана, показать закономерности портретной живописи, задачи, стоящей перед Творцом, и пути ее выполнения. Было изучено творчество художников-портретистов, работающих в Узбекистане, и их стили.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, портретный жанр, реалистическая школа, Портретнавис-художники.

PORTRAIT GENRE IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

In this article, an attempt was made to tell about the importance of the portrait genre in the visual arts of Uzbekistan, to show the patterns of portraiture, the task facing the Creator, and the ways of its implementation. The work of portrait artists working in Uzbekistan and their styles were studied.

Keywords: Fine art, portrait genre, realistic school, Portrait navis-artists.

“San'at va madaniyatdek kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilxomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezigulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o'z

asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi".¹

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida badiiy ijodning boshqa turlari qatori tasviriy san'at sohasi rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'yimoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz".²

Ma'lumki, 2017-yil 3-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvda taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida madaniyat, adabiyot va san'at sohasini, jumladan, tasviriy san'at yo'nalishini rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi. O'tgan qisqa muddatda ana shu taklif va tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan 10 ga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Bundan ko'rinib turibdiki yurtimizda san'atga bo'lgan e'tibor yuqori hisoblanadi. Biz yoshlar ham bu yaratilayotgan imkoniyatlardan imkon qadar keng foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi desam yanglishmayman. Shuningdek, yozma manbalarga ko'ra O'zbekiston hududida tasviriy san'at qadim-qadimdan rivojlangan bo'lib, boy zodagonlarning uylari, saroy va mehmonxonalar turli-tuman rasmlar, haykaltaroshlik namunalari bilan bezatib kelingan. Bu rasm va haykallarda o'sha davr kishilarning qiyofasi o'z aksini topgan. Numizmatikaning O'rta Osiyoga kirib kelishi, pullar zarb etish o'ziga xos mo'jaz portret san'atining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Portret insonning shunday tasviridirki, unda nafaqat tashqi qiyofa, balki ichki dunyo va psixologik xususiyatlar ham ochib beriladi. Portret biror shaxsga xos bo'lgan tashqi qiyofani, uning ichki dunyosi, xarakterini aks ettirish bilan birga, ma'lum tarixiy davrga xos vaziyatlarni ham haqqoniy ifodalab beradi. Portretning turli ko'rinishlari mavjud: samimiy, tantanavor, ijtimoiy, guruhli va psixologik portretlar.

Samimiy, musavvir tor doira uchun ma'lum bo'lgan insonga xos xususiyatlarni yanada bo'rttirib, oshkora ifodalaydi, tantanavor, ommaviy joylarga mo'ljallangan mashhur kishilar portretlari. Ularda tasvirlangan insonning ko'rsatgan xizmatlari, jamiyatdagi o'rni, unga monand libos, interer, buyumlar ifodalanadi. Ijtimoiy, keng doiradagi hamjamiyat sinfining turmush tarzi tasvirlanadi. Guruhli, bir nechta kishilardan tarkib topgan bo'lib, o'zida bir guruhni mujassamlashtirib aks ettiradi.

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat".- 2008 yil.- 158-bet.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqi.

Psixologik, unda xarakter yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etiladi. Musavvir o'zining portretini ishlagan bo'lsa, u avtoportret deb nomlanadi. Portret janri O'zbekiston rangtasvirchilarining kuchli jihatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda kuchli realistik maktab tarkib topishi ajoyib portretnavis-rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A.Abdullayev, R.Ahmedov, R.Choriev, T.Oganesov, V.Burmakin kabi portret ustalari jahonda keng tan olinganligi e'tirof etiladi. Mustaqillikning ijobiy ta'siri o'laroq, san'atning turli yo'nalish va uslublarida erkin ijodga yo'l ochildi, jumladan portret janrida ham. Buning natijasida portret zamonaviy badiiy jarayonida yetakchi bo'lib qoldi. Respublikamizning yetakchi badiiy oliygohi K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida aynan, realistik maktab asosida o'quv mashg'ulotlari olib boriladi. Bu esa rangtasvirning realistik janrida ijod etgan o'tmish ijodkorlarning boy merosini tan olinganligi, shuningdek, jahon san'ati ilg'or tajribasini chuqur o'rganishdan dalolat berib, butun dunyoda avangard yo'nalish bilan bir qatorda, aynan, realistik yo'nalish rivojiga e'tibor bilan qaralganligini ko'p jihatdan namoyon etadi. O'tgan asrning 60-80 yillari o'zbek san'ati tarixida yangi bosqich bo'lib, milliy san'at xususiyatlarining yanada mustahkamlanishi, san'atda milliy o'ziga xoslikni izlash bilan birga shaxsiy his-tuyg'ularni ifodalashga o'tib borishi bilan xarakterlanadi. Bu narsa o'z navbatda uslubiy rang-baranglikni oshirib, tasvir va ifoda vositalarining kengayishiga olib bordi. Rassomlar turli ramziy obraz va shartli belgilardan, rang, shakl, chiziq, faktura imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanishga intildilar. Bu izlanish va tajribalar 50-yillarning oxiri, 60-yillarda san'at olamiga kirib kelgan, professional ta'limni Moskva, Peterburg, Toshkent oliy dargohlarida olgan ijodkorlar tomonidan amalga oshirildi. O'z faoliyatini ancha ilgari boshlagan san'at ahli ijodida ham g'oyaviy-plastik o'zgarishlar sezila boshlandi. Bu davr izlanishlari milliy va jahon madaniy merosini qayta baholab, undan davrga mos yo'nalishlarini qo'llash imkoniyatlarini ochdi. XX asr san'atida sodir bo'lgan jarayonlar ham rassomlar nazaridan chetda qolmadi. Endilikda voqelikni ko'tarinki ruhda nasihatnamo tasvirlashdan o'zlarining hissiy kechinma, tuyg'ularini tahlil etishga, ularni rang, chiziq, shakl tuslanishlarida ifodalashga o'ta boshladilar. Milliy uslub rivojlanib bordi.

O'zbek zamonaviy san'ati O'rta Osiyo milliy san'atiga xos uslub, Yevropa realistik san'ati uslubi, yangi shakllanib kelayotgan avangard ko'rinishlariga tayangan holda shakllandi. U yoki bu uslubni aynan qaytarib yoki tahlil qilib emas, balki davr talabi, g'oyaviy yo'nalishi va ijodkorning shaxsiy qarashi va professional mahorati asosida ishlanib, o'ziga xos qaytarilmas joziba kasb eta bordi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi uning san'atining yangi davrini boshlab berdi. Prezident Islom Karimov farmoniga binoan 1997 yili O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi madaniy rivojning yangi bosqichini ochib berdi. Muhimi, san'atda mafkuraviy nazoratni bekor qilinishi natijasida ijod erkinligini qo'lga kiritgan rassomlar uslubiy rang-baranglikda asarlar yarata boshladilar. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining

tashkil etilishi esa shu jarayonni yanada tezlashishiga yul ochdi.

Mustaqillik yillarida ijod erkinligi san'atda turli uslub va yo'nalishlarning rivojlanishiga olib keldi. San'atning baholash mezonini ijodkorning shaxsiy o'y va kechinmalari belgilay boshladi. O'zbekistonda yangi ma'naviy-g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida, musiqa va tomosha san'atlarida, badiiy va hujjatli kino hamda, televidenie tizimida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mustaqillik yillari rassomlik san'atining mavzusi kengaydi. Eng avvalo milliy tarix bilan bog'liq voqealar ko'pchilik rassomlarni o'ziga jalb etdi. Milliy mavzu va tarixga e'tiborning ortishi tarixiy portretlarning rivojiga katta turtki berdi.

Temur va temuriylar davri tarixiy shaxslarga atab portretlar yaratildi. Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari uchun tanlovlar o'tkazilishi ham shu jarayonda muhim o'rinni egalladi, Zardusht, To'maris, Alpomish, Spitamen siymolari rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika san'atida yaratildi, qatag'onga uchragan yozuvchi, shoir va boshqa ziyolilarning portretlari ishlandi. Har bir zamon o'z zamondoshlarining qiyofasini ko'rishni istaydi. Bu tabiiy. Chunki, davr kishilarning ruhiy olami, ularning borliqqa, tabiatga bo'lgan qiziqishlari shu san'atda o'z ifodasini topadi. Portret san'atning boshqa turlaridan farqli ravishda eng avvalo inson qiyofasini, uning ruhiy olamidagi o'zgarishlarni tahlil etib tarixga muhrlab boradi. Portret janrida ayrim shaxs yoki kishilar guruxi tasvirga olinadi. Unda hayotda mavjud bo'lgan shaxslar qiyofasiga aylanadi. Portretning badiiy qimmatini bu tasvirlangan shaxsning asli, ya'ni ko'rinishning o'xshashligi, balki tasvirlangan shaxs va shaxslarning ruxiyati, individualligi, muayyan davr, ijtimoiy muxit, millatning aloxida xususiyatlari ham yaxlitligicha aks etadi. Shuningdek rassomning o'z qahramoniga munosabati, uning o'zining dunyoqarashi, ijodiy va portretni talqin qilish uslubi portret obraziga sub'ektiv-tuslanish beradi. Texnik ijro, maqsad, obraz tasvirining o'ziga xosligiga ko'ra portret dastgoxli (kartinalar, byustlar, grafik asarlar) va maxobatli (naqsh, koshin, xaykal), tantanaliiva intim, ko'krakdan va butun bo'yi basti, yon tomondan, anfas va boshqa ko'rinishda bo'ladi. Portret detallarda, gemma, miniatyura uslubida ham bajariladi. Obrazlar soniga ko'ra portret yakka, ikkilik va guruhli turlarga bo'linadi. Portretning o'ziga xos janri – avtoportret. Janrlar chegarasining nisbiyligi portretning boshqa janrlar elementi bilan kirishuviga imkoniyat yaratadi. Portret-kartinada portretga olinuvchi, uni qurshab olgan narsalar, manzara, me'morchilik va boshqa kishilar bilan o'zaro bog'liqlikda beriladi va ifoda etiladi. Tipik portret esa yig'ma obraz bo'lib, tuzilishi jixatidan portretga yaqindir. Portretda nafaqat yuksak ruxiy, axloqiy sifatlar, balki salbiy insoniy xususiyatlar aksi,

xajviy xazil mutoyiba portretlarining vujudga kelishini ta'minlaydi. Umuman portret san'ati jamiyat hayotining muxim voqealarini, undagi qarama-qarshiliklarni o'zaro uyg'un, qorishgan holatda ifoda etishga qodir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat".- 2008 yil.- 158-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqi.
3. Abdullaev N.A. O'zbekiston Milliy portret san'ati. –Toshkent, 2011
4. Abdullaev N.A. O'zbekiston san'ati tarixi. –Toshkent, 2007
5. Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиция, самобытность, диалог. –Ташкент, 2004
6. Махмудов Т. Эстетика живописи Узбекистана. –Ташкент, 1997
7. Умаров А.Р. Портретная живопись Узбекистана. – Т., 1964